

ARAB TILIDA KAM MA’NOLI TUB KO‘MAKCHILAR

Sultonbek Boltaboyev
ORIENTAL Universiteti
“Sharq tillari” kafedrasi
katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Arab tilida ham, o‘zbek tilida ham ko‘makchilarning ko‘p iste’molli ekanligi barcha tilshunoslarga ma’lum.

Mazkur maqolada arab tilidagi manosi kam bolgan tub ko‘makchilarning anglatadigan ma’nolari haqida gap boradi. Darsliklarimizda, o‘quv qo‘llanmalarda mazkur ko‘makchilarning ma’nolariga kam e’tibor qaratilgan, lekin mumtoz va hozirgi davr nahvshunoslarning ilmiy asarlarida bu mavzu keng yoritilgan. Biz mana shu asarlardagi barcha ma’lumotlarni bir joyga jamlab mazkur tub ko‘makchilarningning ma’nolarini ko‘rsatib o‘tishga harakat qildik. Buni kengroq yoritib berish uchun turli manbalardan, jumladan o‘rtasidan Nahvshunoslardan Mahmud Zamashariyning “Al-mufassal fi-n-nahvi”, Abdulqodir Jurjoniyning “Arab nahvidagi yuzta omil”, hozirgi davr arab tilshunos-nahvshunoslardan Livanlik olim Antuan Dahdahning “Mu’jamu-l-lug‘ati-n-nahvi-l-arabiy”, suriyalik mashhur tilshunos olim Ahmad Qabbisning “Al-kamil fi-n-nahvi va-s-sarfi va-l-i’rob”, Ardabiliyning Zamashariyning “Al-unmuzaj fi-n-nahvi” nomli asariga yozgan sharxi, shaqshunos olimlardan B. M. Grandening “Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskem osveshenii” va boshqa asarlardan foydalandik.

Kalit so‘zlar: ko‘makchilar, tub ko‘makchilar, asl ko‘makchilar, predloglar, haqiqiy predloglar, ma’nolar.

ПРЕДЛОГИ МАЛОГО ЗНАЧЕНИЯ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

Известно всем языковедам, что предлоги на арабском языке очень много употребляемое. На этом статье речь идёт о предлогам малого значение на арабском языке. На учебниках очень мало обратили внимание на эту тему, но классическом и современное учёные обратили более подробно на эту тему.

На этом статье мы старались более подробно останавливаться на предлогов и их значении. Для этого мы пользовались на ниже следующие средневековых источников: Махмуд аз-Замахшарий «Ал-муфассал фин-нахви», Абдулкадир ал-Журжаний «Миата аамил» а также современных учёных: Ливанский известный учёный Антуан – ад – Даҳдаҳ «Муъжаму-ан-нахви ал-арабий», Б. М. Гранде «Курс арабского языка в сравнительно историческом освещении» и другие.

Ключевые слова: предлоги, собственно предлоги, значения предлогов.

AUXILIARY ROOTS WITH LITTLE MEANING IN ARABIC

ABSTRACT

All linguists know that auxiliary words are widely used in both Arabic and Uzbek. This article discusses the meanings of primitive auxiliary in Arabic. Our textbooks do not pay much attention to the meaning of these auxiliary. However, this topic is widely covered in the scientific works of both classical grammarians and modern grammarians. We have tried to summarize all the information in these works and show all the meanings of this primitive auxiliary. To shed more light on this, we have used various sources, such as the following and many other works, including the medieval grammar of Mahmud az-Zamahshari's "Al-mufassal fin-nahvi", and Abdul-Qahir al-Jurjani's "Hundred Factors in Arabic Nahvi", the famous and one of the modern Lebanese scholars Antoine al-Dahdah's "Mu'jamul lug'atin-nahvil arabi", "Al-kamil fin-nahvi vas-sarfi val I'rab" by Ahmad Qabbis, a well-known Syrian linguist, Al-Ardabiyl'i's commentary on Az-Zamahshari's "Alunmuzaj fin-nahvi", B.M.Grande's "Arabic Grammar Course in Comparative-Historical Lighting"

Keywords: In Uzbek: auxiliaries, primitive auxiliaries, original auxiliaries, prepositions, real prepositions, meaning. In .etc معنی حروف الجار حروف الاضافة:Ar حروف تجر السم حروف الجر الصلبة حروف الزائدة حروف الجر الشبيهة

Arab tilidagi "hurufu-l-jarri" (حُرُوفُ الْجَرِّ) deb nomlanuvchi tub ko'makchilar turli ma'nolarda qo'llaniladi. Mo'tabar manbalarda, shuningdek zamonaviy darslik va qo'llanmalarda tub ko'makchilar alohida tilga olinadi. Mazkur maqolada manosi kam bolgan tub ko'makchilarning anglatadigan ma'nolari haqida to'xtalib o'tamiz. Jumladan:

— tub ko'makchisi tub ko'makchi vazifasida faqat qasamni ifodalash uchungina ishlatiladi va o'zidan keyingi kelayotgan ismni qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi. Rus va o'zbek arabshunoslari — ni ko'pincha yuklama sifatida , tub ko'makchilar qatoriga qo'shmay tasarruf qiladilar. Biroq arab nahvshunoslari unior harfi, ya'ni tub ko'makchi sifatida o'rganadilar.

Buyuk alloma Abdul Qohir al – Jurjoniy bu fikrni o'zining "Arab tilidagi yuzta omil" asarida qisqa satrlarda shunday ifodalaydi:

وَالنَّاءُ لِلْفَسِيمِ وَ هِيَ لَا تَدْخُلُ إِلَّا عَلَى إِسْمِ اللَّهِ تَعَالَى ، نَحْوَ تَأْلِهَةِ لِأَضْرَبَنَّ رَيْدًا .

Bu tub ko'makchi ishlatilganida اُفسِيم ya'ni "qasam ichaman" fe'lini ishlatish joiz emas, shuning uchun اُفسِيم تَأْلِهَةِ deb ham aytilmaydi. SHu bilan birga ko'makchisi الله lafzidan keyingi kelayotgan boshqa so'zni qaratqich kelishigiga qo'ymaydi, - تَأْلِهَةِ لِأَضْرَبَنَّ رَيْدًا - "Allohga qasamki hech qachon Zaydni urmanglar" deb aytish mumkin.

رَبُّ الْكَعْبَةِ so‘zi Ka’ba robbisi bo‘lgan Allohga qasam” jumlasida esa رَبُّ الْكَعْبَةِ so‘zining aniqlanmishi bo‘lganligi uchun so‘zi qarqtqich kelishigida turadi, vaholangki bu izofa birikmasidir. رَبُّ so‘zi esa Alloh so‘ziga ma’nodosh (sinonim) bo‘lganligi uchun kasrada kelib, bu erda uni ٿ ko‘makchisi qaratqich kelishigiga qo‘ymoqda.

Yana juda kam hollarda "رَحْمَانٌ" (Rahmon sifatiga ega bo'lgan) Alloh nomi bilan qasamyod qilaman "deb eshitilib qolinadi va ba'zida yana "Sening hayoting bilan qasam ichaman" degan so'z ham eshitilib qolinadi. Bu hol ajablanarlidir.

— حاشا ko‘makchisi tub ko‘makchi vazifasida kelganida u ham faqat yagona ma’no – istisnolikni ifodalaydi.

Shu o‘rinda arab nahvshunoslarining quyidagi fikr – mulohazalarini o‘rganib chiqaylik:

Zamaxshariy o‘zining "الأندَخْ فِي الْحُوْ" asarida bu haqda quyidagicha yozadilar:
حاشا - وَهِيَ لِإِسْتِثْنَاءِ أَيْ بِمَعْنَى إِلَّا هُوَ: جَاءَنِي الْقَوْمُ حَاشَا رَيْدٌ.

Ya'ni: حاشا - إلّا ma'nosidagi tub ko'makchi bo'lib istsnolikni ifodalaydi.
Masalan: Menikiga Zaydddan boshqa hamma keldi.

Ibni Aqiyl ibn Molikning "الْفَيْةُ" asarini sharhlab , hususan حاشا tub ko‘makchisi haqida shunday yozadilar:

الْمَسْهُورُ أَنَّ " لا تَكُونُ إِلَّا حَرْفٌ حَرْفٌ جَرٌّ ، فَتَقُولُ : قَامَ الْقَوْمُ حَاشَا زَيْدٍ بِجَرٍ زَيْدٍ ... حَاشَا"

Ya’ni: حاشا tub ko‘makchisining mashhur ma’nosи - u tub ko‘makchi vazifasida keladi. Shuning uchun aytadilarki, “ Zayddan boshqa (hamma) qavm turdi. Bu erda حاشا dan keyingi kelayotgan Zayd so‘zi qaratqich kelishigida turibdi.

Misrlik mashhur nahvshunos olim Abdul Aziz Muhammad Foxir ham o‘zining asarida حاشا ni tub ko‘makchi sifatida quyidagicha e’tirof etadi: "توضیح اللحو"

حاشا - وَهُوَ تَسْتَعْمِلُ حَرْوَفَ جَرٍ... وَ إِنَّ جَرًّا بَعْدَهَا كَانَتْ حَرْوَفَ جَرٌّ.
Ya'ni: Agar ko'makchisi o'zidan keyingi kelayotgan ismni qaratqich

kelishigiga qo‘ysa u tub ko‘makchi vazifasida keladi.

خلا - tub ko‘makchisi ham xuddi حاشا tub ko‘makchisi kabi faqat yagona ma’no – istisnolikni ifodalaydi. Uning hukmlari xuddi حاشا tub ko‘makchisi singari bo‘lganligi uchun bu haqda to‘xtalib o‘tirmaymiz. خلا ni faqat tub ko‘makchi vazifasida kelishi mumkin ekanligini o’tirof etish bilangina kifovalanamiz.

keşim hukmün ekanlığının e'terif etişti bulanğıma kroyalaranız. - رُبَّمَا، رُبَّهَا، رُبَّهُ، رُبَّتْ - tub ko'makchisi manbalarda kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lib, lug'atda tez – tez, ko'p, ko'pincha, damba – dam, qancha – qancha, ehtimol, balki, ba'zan, goho, kamdan – kam, onda – sonda, ora – sira, ahyon – ahyonda kabi ma'nolarni anglatadi. U quvidagi ma'no va xususiyatlarga ega.

Liveqlik tilshunos olim Antuan ad – Dahdah o‘zining "مُعجمُ لِغَةِ النَّحْوِ الْعَرَبِيِّ" nomli kitobida tub ko‘makchisi haqida shunday yozadi:

رُبَّ - رُبَّتَ - حَرْفٌ مَعْنَىً مَبْنِيًّا عَلَى الْفَتْحِ لَا مَحْلَ لَهُ مِنِ الإِعْرَابِ، وَحَرْفٌ جَرِّ. .

رُبَّ yoki - oxiridagi fathasi o‘zgarmaydigan, kelishiklarda ham o‘zgarmaydigan tub ko‘makchidir. Masalan :

رُبَّ ضَارَّةٌ نَافِعَةٌ. - Ba’zan zararli narsa ham foyda keltiradi.

رُبَّ أَخْ لَكَ لَمْ تَلِدْهُ أُمُّكَ. - Ba’zida onang dunyoga keltirmagan kishi senga aka bo‘lishi mumkin.

عَدَا – tub ko‘makchisi ham خَلَا va حَاشَا tub ko‘makchilari kabi yagona ma’no – istisnolikni ifodalaydi.

عَدَا – o‘zbek tiliga ...dan tashqari, ...dan boshqa, ...ni hisobga olmaganda kabi ma’nolarni anglatib yuqorida zikr qilinganidek istisnolikni bildiradi va ba’zan fe’lib, o‘zidan keyingi ot ni qiladi yoki tub ko‘makchi bo‘lib kelganida jar qiladi. Masdar ma’nosidagi ما bilan birga kelganda undan keyingi ot to‘ldiruvchi o‘laroq nasb bo‘ladi, masalan:

جَاءَ الْقَوْمُ عَدَا مُحَمَّدًا - Muhammaddan boshqa; فِيمَا عَدَا ذَلِكَ yoki مَا عَدَا ذلك - bundan boshqa (bo‘lak), bundan tashqari; عَدَا السَّهْوِ وَالْخَطَأِ - ehtimolli xato va kamchiliklarni hisobga olmaganda.

كَيْ – tub ko‘makchisi. Mazkur tub ko‘makchi haqida nahvshunos olim Ahmad Qabbis o‘zining "الْكَامِلُ فِي النَّحْوِ وَالصَّرْفِ وَالْإِعْرَابِ" – "Arab tili grammatikasi va turlanishdagi mukammal kitob" nomli asarida shunday yozadi:

كَيْ - حَرْفُ جَرِّ أَصْنَلِيٌّ وَتَجْرُ المَصْدَرَ الْمُؤَوَّلَ بِمَا الْمَصْدَرِيَّةُ مِثْلٌ...

Ya’ni: كَيْ - hozirgi – kelasi zamon fe’lini masdar ma’nosiga aylantiruvchi asl tub ko‘makchidir, masalan: إِجْتَهَدْ كَيْ مَا تَتَجَحَّ - Muvaffaqiyat qozonishing uchun harakat qil.

1) لِلتَّغْلِيلِ - shu bilan birga كَيْ sababni bildirish uchun ishlatiladi, masalan: U o‘rganish uchun keldi.

2) لِلْغَايَةِ - g‘oya, maqsad, mo‘ljal, niyat, murodni anglatish uchun ishlatiladi, masalan:

فَرَدَنَاهُ إِلَيْ أُمِّهِ كَيْ تَقَرَّ عَيْنَهَا وَلَا تَحْرَنَ.

Shunday qilib, Biz (Musoning onasi) ko‘zлари quvonishi va g‘am chekmasligi uchun uni onasiga qaytardik.

3) إِلَيْ - tub ko‘makchisi ma’nosida keladi, masalan:

سَاجَّهَدْ كَيْ أَنْ أَنْجَحَ - Muvaffaqiyat qozongunimcha tirishaman.

4) مَا - so‘roq olmoshiga qo‘shiluvchi tub ko‘makchi bo‘lib keladi, masalan:

كَيْمَهْ yoki كَيْمَهْ nimaga, nima uchun?

Muhammad Fohir o‘zining “Gammatikani sharhlash” nomli asarida shunday yozadi:

ولكِنْ: كَيْ تَأْتِي جَازَةً شُدُودًا.

Ya'ni: Lekin - كَيْ - g'ayri oddiy holatda yoki istisno tariqasida tub ko'makchi bo'lib keladi.

لَعْلَ - tub ko'makchisi. - tub ko'makchi vazifasida juda kam qo'llaniladi. Bu haqda Muhammad Foxir o'zining "Gammatikani sharxlash" nomli asarida shunday yozadi:

وَ أَمَّا "الَّعْلَ" قَدْ إِسْتَعْمَلَتْ حَرْفٌ جَرِّ شَبِيهٌ بِالرَّاءِ عِنْدَ عُقْبَيْلٍ فَقَطْ. وَ ذَلِكَ كَانَ نَقْوُلُ عَلَيْ لُغَتِهِمْ: لَعْلَ الْغَائِبِ قَادِمٌ. فَلَعْلَ حَرْفُ جَرِّ شَبِيهٌ بِالرَّاءِ "الْغَائِبِ" مُبَدِّداً مَجْرُورٌ لَفْظًا، وَ "قَادِمٌ" حَبْرًا.

Ya'ni: faqt Uqayl qabilasining tilidigina tub ko'makchiga o'xshash ziyoda harf hisoblanadi. Ularning tilida shunday gap bor: "Eh, qaniydi yo'q bo'lib ketgan (odam) lar qaytib kelsalar".

Bu gapda "غَائِبٌ" so'zi ega va lafzan qaratqich kelishigida, "قادِمٌ" so'zi esa uning kesimidir.

لَعْلَ - tub ko'makchisi quyidagi 2 ta ma'noga ega:

1) لَتَرْجُحٌ - biror narsani nihoyatda intiqlik bilan kutishni ifodalashda ishlatiladi. SHuningdek biror narsaga umid bog'lash va ba'zida mehr - shafqat, sog'inch, xavotir, qo'rquv kabi ma'nolarni ifodalashda ishlatiladi, masalan:

فَقُولَا لَهُ فَوْلَا لَيْلَنَا لَعْلَهُ يَتَذَكَّرُ أَوْ يَخْشِي.

Bas, unga yumshoq so'z so'zlangiz! SHoyad, u eslatma olsa yoki (halok bo'lishidan) qo'rqsasi.

2) بِمَعْنَى الْإِسْفَاقِ - rahm, achinish, mehr - shafqat, qayg'u - g'am, afsus, taassuf, qayg'urish, g'am eyish, qo'rquv, qo'rqinch, xavotirlanish, cho'chish, hadiksirash kabi ma'nolarni anglatadi. Demak, لَعْلَ ana shu ma'nolarning birini ifodalash uchun ishlatiladi, masalan:

وَ إِنْ أَدْرِي لَعْلَهُ فِتْنَةً لَكُمْ وَ مَتَاعٌ إِلَيْ حِينِ.

Bilmayman, ehtimol, bu (azob soatining kechirilishi) sizlar uchun bir aldov - sinov va bir oz vaqtgacha (ajallaringiz etib o'lunningizgacha) foydalanishdir.

متى - tub ko'makchisi. متى - jud ko'p arabshunos va nahvshunoslar nazdida tub ko'makchi vazifasida kelmaydi. Biroq arablarning Huzayl qabilasi tilida u tub ko'makchi vazifasida qo'llaniladi. Manbalarda bu jihat faqt ibn - Aqyl ibn Molikning "Alfiya" asariga yozgan sharxida, Muhammad Foxirning "Grammatikani sharxlash" asarida deyarli bir xil talqin qilingan. Ibn Molikning o'zi ham , متى ni tub ko'makchilar qatoriga, Huzayl qabilasining tiliga asoslanib qo'shgan bo'lishi kerak. Mazkur manbalarga suyangan holda ning tub ko'makchi ekanligi haqida quyidagilarni keltirish mumkin:

وَ أَمَّا "مَتَى" فَالْأَكْثَرُ إِسْتَعْمَلَهَا ظَرْفُ زَمَانٍ، مِثْلٌ مَتَى حَضَرْتَ؟ وَ لَكِنَّهَا إِسْتَعْمَلَتْ فِي لُغَةٍ "هُدَيْلٍ" حَرْفُ جَرِّ بِمَعْنَى "مِنْ" أَلْإِبْدَابِيَّةِ وَ قَدْ سُمِعَ مِنْ كَلَامِهِمْ: أَخْرَجَهَا مَتَى كُمَّهُ، أَيْ: مِنْ كُمَّهُ.

Ya'ni: – مَثِيَ – ko'pincha payt holini ifodalashda ishlatiladi. Masalan: "Qachon kelding?" Lekin Huzayl qabilasining tilida u ish – harakatning boshlanish nuqtasiga ishora qiluvchi "منْ" tub ko'makchisining ma'nosida ishlatiladi va tub ko'makchi vazifasida kela oladi. YA'ni u ham ismlarni qaratqich kelishigiga qo'ya oladi. Ularning tilida shunday jumla bor: "U uni engidan chiqardi". Bu erda ular deb aytmochilar.

Huzayl qabilasining shoiri Abu Zuayb al – Huzamiy YAsif as – Sahobning ijodida shunday satrlar bor:

شِرِبَنَا بِمَاء الْبَحْرِ ثُمَّ تَرَفَعْتُ
مَثِي لِجَحٍ حُضْرٌ لَهُنَّ تَنْيَجٌ

Dengiz suvidan qonib ichamiz,
Ko'tarilar suv dengiz qa'ridan.
Ko'tarilar dengizning ko'm – ko'k mavjlari,
So'ng yana u tomon chopib boramiz.

Demak, – مَثِيَ - ham arablarning ba'zi qabilalarining tilida tub ko'makchi vazifasida kela oladi. Muhammad Foxir bu haqda o'z fikrini quyidagicha yakunlaydi:
فَمَثِي: بِمَعْنَى "مِنْ" جَارَةً لِلْإِسْمِ "الْجَحُّ". وَ إِسْتَعْمَالُ "مَثِي" حَرْفٌ جَرٌّ غَرِيبٌ أَلْأَنْ عَلَيِ الْإِسْمَاعِ.

Ya'ni: – مَثِي – ...dan ma'nosidagi tub ko'makchi bo'lib, so'zini qaratqich kelishigiga qo'ymoqda, ammo u taqdirida bo'lishi kerak edi. Ammo – مَثِي – jarr harfi – ya'ni, tub ko'makchi bo'lib, eshitganlar uchun hozir ajablanarlidir.

مُذْ و مُذْدُ – لِإِبْدَاءِ الْغَایِةِ يَكْثُرُ إِسْتِعْمَالُهُمَا إِسْمِيْنَ طَرْفَيْنَ أَوْ إِسْمِيْنَ غَيْرَ طَرْفَيْنَ وَ يَكْثُرُ إِسْتِعْمَالُهُمَا حَرْفَيْنَ أَصْلَلَيْنَ لِلْجَزِّ.

Ya'ni: bu tub ko'makchilar ko'pincha payt holi yoki ish – harakatning boshlanish nuqtasiga ishora qiladi. SHuningdek bu ikki harf asl tub ko'makchi hamdir.

Muhammad Fohir mazkur ikki tub ko'makching o'ziga xos xususiyatlari haqida o'zining "Grammatikani sharxlash" nomli asarida quyidagicha yozadi:

مُذْ و مُذْدُ و هُمَا يُسْتَعْمَلُانِ حَرْفَيْنِ جَرِّي، يَجْرَانِ الْإِسْمِ الظَّاهِرِ فَقْطُ، بِشَرْطٍ أَنْ يَكُونَ الْإِسْمُ دَالًا عَلَيِ الرَّمَانِ وَ أَنْ يَكُونَ مَاضِيًّا أَوْ حَاضِرًا ، لَا مُسْتَقْبَلًا.

Ya'ni: Bu tub ko'makchilar faqat o'tgan yoki hozirgi zamonga dalolat qiladigan va aksincha kelasi zamonga dalolat qilmaydigan zohir ismlarnigina qaratqich kelishigiga qo'yish sharti bilan amalda qo'llaniladi.

فَإِنْ دَخَلْتُ: مُذْ و مُذْدُ، عَلَيِ الرَّمَانِ الْمَاضِيِّ، كَانَتَا بِمَعْنَى "مِنْ" الْإِبْدَائِيَّةِ مِثْلٌ:

Agar mazkur ko‘makchilar o‘tgan zamon fe’lidan keyin kelsa "من" - ...dan tub ko‘makchisining ma’nosida kelib, ish – harakatning ayni bir vaqtining boshlanish nuqtasiga ishora qiladi, masalan:

ما رأيته منذ يوم الخميس الماضي.

Men uni o'tgan payshanba kunidan buyon ko'rmadim (demak, uning ko'rmasligi juma kunidan boshlangan).

وَإِنْ دَخَلْتَ عَلَى الزَّمَنِ الْحَاضِرِ، كَانَتَا بِمَعْنَى "فِي" الظَّرْفِيَّةِ، مِثْلٌ:

Agar bu ikki ko'makchi hozirgi zamon fe'lidan keyin kelsa, u holda "...dan, ichida ma'nosida kelib, ayni paytga ishora qiladi, masalan:

– مَا رَأَيْتُهُ مُنْذُ سَاعَتِنَا. Men uni bugun (gi kunda) ko‘rmadim.

وَ لَا يَصِحُّ أَنْ يَجْرُّ بِهِمَا الضَّمِيرُ أَوْ إِسْمُ الْذِي لَا يَدْلِلُ عَلَى الزَّمَنِ، فَلَا تَقُولُ: مُذْهَأُ أَوْ مُذْهَنٌ أَوْ مُذْدِنُ الْبَيْتِ، كَمَا لَا يَصِحُّ أَنْ يَجْرُّ بِهِمَا الزَّمَنِ الْمُبْهَمُ أَوْ الدَّالُ عَلَى الْمُسْتَقْبَلِ، فَلَا تَقُولُ مُنْزَرُ زَمَنٍ أَوْ مُذْدِنٌ غَدِّ.

Ya'ni: ڦاڻا ڦاڻا ڦاڻا tub ko'makchilarini olmoshlar va zamonga dalolat qilmaydigan ismlardan oldin qo'llash to'g'ri bo'lmaydi, shuning uchun ڦاڻا ڦاڻا yoki ڦاڻا ڦاڻا deb aytilmaydi.

Shuningdek bu ikki tub ko'makchini noma'lum vaqtga ishora qiluvchi, hamda kelasi zamonga dalolat qiluvchi ismlardan oldin ham qo'llash to'g'ri emas, shuning uchun **مۇنۇزىنىڭ يوقى** مۇنۇزىنىڭ يوقى deb ham bo'lmaydi.

Arab tilining izohli lug‘ati - "الْمُنْجِدُ فِي الْلُّغَةِ وَ الْإِعْلَامِ" tub مُنْجِدٌ va مُدْ kitobida "الْمُنْجِدُ فِي الْلُّغَةِ وَ الْإِعْلَامِ" - ko‘makchilarini "فِي" "إِلَيْ" tub ko‘makchisining "مِنْ" ma’nosida ishlatalish mumkinligi haqida ham aytilgan.

وَإِنْ كَانَ الْمَعْنَى مَعْدُودًا كَانَتْ بِمَعْنَى "إِلَيْ" نَحْوٌ: مَا رَأَيْتُهُ مُذْ تَلَاثَةَ أَيَّامٍ: أَيْ إِلَيْ تَلَاثَةَ أَيَّامٍ.

Ya’ni: Agar bu ikki tub ko‘makchi sanash mumkin bo‘lgan (aniq) vaqt ichida sodir bo‘lgan ish – harakatga ishora qiluvchi ismlar oldidan kelsa, **إِلَيْ** - tub ko‘makchisining ma’nosida ishlatish mumkin, masalan: Men uni uch kundan buyon ko‘rmadim, ya’ni: Men uni uch kungacha ko‘rmadim.

ۋ - tub ko‘makchisi. و - harfiga “Al - Qomus”da quyidagicha ta’rif berilgan:

‘ – arab alifbosining yigirma ettinchi harfi, abjadda – 6, ko‘p ishlatilishi bo‘yicha 1 – darajada turadi”. 1. SHuningdek, unda mazkur harfning 19 ta ma’nosи borligi aytilgan. Ammo ‘ – tub ko‘makchi vazifasida kelganida faqat yagona ma’no – qasamni ifodalashda ishlatiladi.

وَفَمُخْتَصَّةٌ بِالْقِسْمِ، وَلَا يَجُوزُ نِكْرُ فِعْلِ الْقِسْمِ مَعَهُ فَلَا تَقُولُ: أَقْسِمُ وَاللهُ:

- قَسَمٌ - qasamni ifodalash uchun maxsus tub ko‘makchi bo‘lib, bunda - قَسَمٌ وَاللهُ أَفْسِمٌ - deb qasam ichmoq fe’lining ishlatalishi joiz bo‘lmaydi, shuning uchun: - وَاللهُ أَلْهَمَهُ الْقَسَمَ - Allohga qasam, - وَضُحَاهِيَ - Qasamyod etaman Quyosh va uning ziyyosiga.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki arab tilidagi tub ko'makchilarning soni manbalarda ta'kidlanishicha 20 ta va ular ichida kabi **إلى**, **على**, **في**, **من** ب، من tub

ت، حاشا، ko'makchilarning har biri o'ttizga yaqin ma'nolarda ishlatiladi, yuqoridagi kabi tub ko'makchilar ularga qaraganda kam ma'noli tub ko'makchilar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Асқарова М., Абдураҳмонов Х. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми. –Т.: Ўқитувчи. 1972.
 2. Мирзаев М., Усмонов С., Раулов И. Ўзбек тили.-Т.: Ўқитувчи. 1970.
 3. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон Миллий энсиклопедичси Давлат илмий нашриёти.1997.
 4. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещение. –М.: Восточная литература.1998.
 5. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. –М., 1987.
 6. Қуръони Карим маъноларининг таржимаси. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. “Тошкент ислом университети” нашриёти“Шарқ” нашриёт-матбаа аксиядорлик компанияси босмахонаси.2001.
 7. انطوان الدحدح "معجم لغة النحو العربي". مكتبة لبنان ناشرون 1993
 8. أحمد قبّت "الكامن في النحو و الصرف و الاعراب". دمشق. بيروت. 1986
 9. شرح الانموذج في النحو للعلامة الزمحشري بشرح الارببي. مكتبة الاداب. مصر. القاهرة. 1990
 10. عبدالعزيز محمد فاخر "توضيح النحو". مصر. الازهر. القاهرة. الجزء الثالث. 1996
 11. عبد القاهر الجرجاني. مئة عامل.
 12. المنجد في اللغة و الاعلام . دار المشرق . المكتبة الشرقية . بيروت . لبنان . 1987 .
 13. القرآن الكريم.
 14. احمد محمد طاحون "من و صلبا الرسول صلى الله عليه و سلم خمس و خمسون و صيحة". الصعو دية